ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Ganiyev	4	Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish: jamoatchilik fikri asosida empirik tahlil
M. Pardayeva	13	Yangi o'quv yilining dastlabki 30 kunida maktab boshqaruvi: strategik ustuvorliklar va boshqaruv amaliyotining diagnostik tahlili
A. Xolmurodov	22	Pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish: muammolar, huquqiy asoslar va istiqboldagi yo'nalishlar (Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi misolida)
X. Nurmetov	26	Ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari
U. Xasanov	30	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
U. Toxirov	33	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda "PBL" va "Sun'iy intellekt" vositalarini birgalikda qo'llashning pedagogik muammolari va ularning yechimlari
D. Kamoljonova	38	Mutolaa sotsiometrik munosabatlarni shakllantiruvchi madaniy vosita sifatida
B. A'zamov	42	Multimedia texnologiyalari orqali talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish
R. Quziyev	46	O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
D. Mo'ydinova	50	Talabalarda shaxsiy e'tiqodini shakllantirish texnologiyasi
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Z. Taxirov	53	Uslubiyatning fonetik vositalari
D. Il'yasova	58	Bolalar adabiyoti vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
N. Kamolova	61	Kimyo ta'limida o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
M. Kenjayeva	70	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari
D. Sadikov	74	Organik kimyo darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Sayidova	79	Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologik ta'lim mazmunida ilg'or texnologiyalarning aks etishi
J. Buriyev	83	Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish
U. Toxirov	86	Oliy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim (pbl) texnologiyasi bilan sun'iy intellekt vositalarini integratsiyalashning pedagogik salohiyati

N. Temirov, X. Sirojiddinova	91	O‘quv jarayonini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanish
		TA’LIMDA MENEJMET
Q. Almardanov	94	Maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish jarayonlarini optimallashtirish
		TA’LIMDA IQTISODIOT VA MOLIYALASHTIRISH
N. Boymuradov	103	Maktabgacha ta’lim tashkilotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy boshqaruv modeli
A. Boltaev	109	Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ularni samarali boshqarish
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
N. Dushayeva	115	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik etikani shakillantirish vositalari va shartlari
		PSIXOLOGIYA
X. Toshturdieva	119	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini deontologik qobiliyatlarini shakllantirishning hozirgi holati
M. Muzaffarova	127	Raqamli jamiyat sharoitida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining raqamli sotsializatsiyasi va ota-onalik kompetentligining psixologik-pedagogik determinantlari
D. Adilova	131	Jamoadagi konfliktlarni boshqarish va ularni konstruktiv murosaga olib kelishning zamonaviy mexanizmlari
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
D. Zayniddinova	135	Markaziy osiyoda suv resurslari muammosi va barqaror boshqaruv strategiyalari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
D. Xoliqulova	138	Mehrli maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi

Umrzoq TOXIROV,
“ZARMED UNIVERSITETI” nodavlat oliy ta’lim muassasasi
Buxoro kompusi, xodim

OLIY TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLI TA’LIM (PBL) TEXNOLOGIYASI BILAN SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINI INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SALOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim sharoitida muammoli ta’lim (PBL – Problem-Based Learning) texnologiyasini sun’iy intellekt vositalari bilan uyg‘unlashtirishning pedagogik salohiyati o‘rganilgan. Tadqiqot davomida PBL bosqichlarini sun’iy intellektga asoslangan yechimlar hisobiga boyitishga qaratilgan didaktik model taklif etilgan; individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash, muammoli vaziyatlar bazasini shakllantirish hamda ushbu yondashuvlarni o‘quv amaliyotiga joriy etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Oliy ta’lim, muammoli ta’lim (PBL), sun’iy intellekt, pedagogik salohiyat, individual ta’lim trayektoriyasi, muammoli vaziyat, fasilitatsiya, intellektual baholash, raqamli didaktika, kasbiy kompetensiya.

В настоящей статье рассматриваются педагогические возможности интеграции технологии проблемного обучения (PBL – Problem-Based Learning) с инструментами искусственного интеллекта в условиях высшего образования. Предложена дидактическая модель обогащения этапов PBL средствами на основе искусственного интеллекта, а также сформулированы практические рекомендации по построению индивидуальной образовательной траектории, формированию банка проблемных ситуаций и их внедрению в учебную практику.

Ключевые слова. Высшее образование, проблемное обучение (PBL), искусственный интеллект, педагогический потенциал, индивидуальная образовательная траектория, проблемная ситуация, фасилитация, интеллектуальное оценивание, цифровая дидактика, профессиональная компетенция.

This article examines the pedagogical potential of integrating problem-based learning (PBL) technology with artificial intelligence tools within higher education. A didactic model for enriching PBL stages through AI-based solutions is proposed, along with practical recommendations for designing individual learning trajectories, building a bank of problem situations, and implementing these approaches into educational practice.

Key words. Higher education, problem-based learning (PBL), artificial intelligence, pedagogical potential, individual learning trajectory, problem situation, facilitation, intelligent assessment, digital didactics, professional competence.

Zamonaviy oliy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri – tayyor bilimlarni uzatishdan talabaning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etishga o‘tishdir. Bugungi mehnat bozori bitiruvchidan nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy ishlay olish, axborotni tanqidiy tahlil etish va uzluksiz o‘rganish qobiliyatini talab etmoqda. Jahon amaliyotida o‘z samaradorligini isbotlagan yo‘nalishlardan biri sifatida muammoli ta’lim (PBL – Problem-Based Learning) texnologiyasi mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi: bunda o‘quv jarayoni real kasbiy muammo atrofida quriladi, talaba muammoni idrok etadi, o‘zidagi bilim tanqisligini aniqlaydi,

mustaqil izlanish olib boradi, guruh doirasida muhokama qiladi va topilgan yechimni himoya qiladi.

Hozirgi kunda generativ til modellari, intellektual ta'lim tizimlari, moslashuvchan (adaptiv) platformalar hamda ta'lim analitikasiga tayanuvchi sun'iy intellekt vositalari o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va mazmunan boyitish uchun keng imkoniyat ochmoqda. O'zbekistonda ushbu texnologiyalarni rivojlantirish va ta'lim sohasiga tatbiq etishga qaratilgan davlat siyosati, jumladan tegishli strategik hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-pedagogik izlanishlarning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

PBL va sun'iy intellekt masalalari alohida-alohida ancha keng tadqiq etilgan bo'lsada, ularni yaxlit didaktik tizim sifatida birlashtirib qo'llash oliy ta'lim amaliyoti uchun nisbatan yangi va kam o'rganilgan yo'nalish hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotning maqsadi – oliy ta'lim tizimida PBL texnologiyasi bilan sun'iy intellekt vositalarini birgalikda qo'llashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularni tizimga solish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Muammoli ta'limning nazariy negizlari G.Korkmaz va N.Kalayci tomonidan "Problem and project-based learning as an educational philosophy: A novel conceptual model for higher education" maqolasida yoritilgan bo'lib, unda muammo va loyihaga asoslangan ta'lim (PBL)ning oddiy o'qitish metodidan yaxlit ta'lim falsafasiga aylanish jarayoni tahlil qilinib, oliy ta'lim uchun yangi kontseptual model taklif qilingan. Mualliflar PBL ni butun o'quv dasturini muammolarga yo'naltirilgan ta'lim modeli sifatida talqin qiladilar. Tadqiqotda narrativ adabiyotlar sharhi asosida yangi nazariy aloqalar yaratilgan va mavjud nazariyalar sintez qilingan bo'lib, muammoga va loyihaga asoslangan ta'limni birgalikda tahlil qilish orqali oliy ta'limdagi nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish mumkinligi asoslab berilgan [1].

Yu.N.Ziyatdinova va F.A.Sanger "Proyektnoye obucheniye dlya podgotovki inzhenera XXI veka" nomli ishida XXI asr muhandisini tayyorlashda loyihaviy ta'limning o'rnini ko'rib chiqadi. Perdyu universiteti tajribasi asosida mualliflar loyihaviy ta'limni bir necha turga ajratadi: namoyish xarakteridagi loyihalar, bitta fan doirasidagi loyihalar va fanlararo (multidistsiplinar) loyihalar. Tadqiqotda "yopiq" masalalardan real hayotiy "ochiq" masalalarga bosqichma-bosqich o'tish zarurligi ta'kidlanadi, shuningdek, xalqaro loyihaviy tajriba misolida turli mamlakat va madaniyat vakili bo'lgan talabalarning hamkorlikdagi ishiga xos qiyinchiliklar tahlil qilinadi [2].

T.V.Danilova, T.Ye.Demidova va A.P.Tonkix "Proyektnoye obucheniye studentov kak osnovnoye usloviye ix gotovnosti k professional'noy deyatel'nosti" ishida loyihaviy ta'limning talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi hal qiluvchi rolini ilmiy asoslaydi. Mualliflarning ta'kidlashicha, loyihaviy ta'lim muvaffaqiyatli tatbiq etilgach, talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi va o'zlashtirish natijalari yaxshilanadi. Bundan tashqari, loyihaviy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat fan bo'yicha bilim oladi, balki muzokara yuritish, birgalikda qaror chiqarish, jamoaviy mas'uliyatni his qilish va natijalarni birgalikda talqin etish ko'nikmalarini ham egallaydi; loyihaviy ta'limning kasbga erta yo'naltirish dasturlarida tutgan o'rni ham alohida ko'rsatib o'tilgan [3].

B.Condliffe, J.Quint, M.G.Visher, M.R.Bangser va boshqa mualliflarning "Project-Based Learning: A Literature Review" nomli keng qamrovli sharhi 2000-yildan keyingi 17 yillik davrda e'lon qilingan tadqiqotlarni umumlashtiradi. Unda PBL ning asosiy tamoyillari, K-12 bosqichida qo'llanilishi, o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklar, maktab va tuman darajasidagi omillarning ta'siri hamda o'quv natijalariga qo'shgan hissasi

ko‘rib chiqilgan. Xulosalarga ko‘ra, PBL samaradorligiga oid dalillar “istiqbolli, biroq hali yetarlicha isbotlanmagan” tarzda baholanadi: tabiiy va ijtimoiy fanlarda ijobiy ta’sir kuzatilgan bo‘lsa, matematika va savodxonlik yo‘nalishida dalillar cheklangan. Mualliflar PBLni samarali joriy etish uchun o‘qituvchi roli tubdan o‘zgarishi va tegishli kasbiy tayyorgarlik dasturlari zarurligini qayd etadi [4].

M.C.Granado-Alcón, D.Gómez-Baya, E.Herrera-Gutiérrez va boshqalarning “Project-Based Learning and the Acquisition of Competencies and Knowledge Transfer in Higher Education” ishida oliy ta’limda PBL metodologiyasi kompetensiyalarni egallash va bilimni ko‘chirish (knowledge transfer) nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Tadqiqot Xuelva va Mursiya universitetlaridagi 464 nafar talaba ishtirokida amalga oshirilgan bo‘lib, natijalarga ko‘ra PBLdan so‘ng umumiy, maxsus va ko‘ndalang kompetensiyalar o‘rta va yuqori darajada shakllangan, bilim ko‘chirish darajasi esa loyihani baholash natijalari bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlangan. Mualliflarning fikricha, PBL barqaror rivojlanish uchun ta’lim (ESD) kontekstida talabalarning tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim metodologiya sanaladi [5].

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili ko‘rsatishicha, mavjud tadqiqotlarning katta qismida sun’iy intellekt an’anaviy o‘qitish sharoitida tadqiq etilgan bo‘lib, uning imkoniyatlarini bevosita PBL bosqichlariga bog‘lab, yaxlit didaktik model doirasida ochib berish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Aynan shu holat tadqiqot mavzusining ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, sintez, qiyoslash, modellashtirish, pedagogik kuzatuv va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Dastlab PBLning asosiy bosqichlari aniqlab olindi, so‘ng har bir bosqichga mos sun’iy intellekt vositalari pedagogik maqsadlarga uyg‘un tarzda tanlab chiqildi. Ishlab chiqilgan model oliy ta’lim muassasasining amaliy mashg‘ulotlarida sinovdan o‘tkazildi, talaba va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari asosida uning amaliy imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilinib, umumlashtirildi.

O‘tkazilgan tahlil natijasida PBL va sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llashning pedagogik imkoniyatlarini olti asosiy yo‘nalishga birlashtirish mumkin bo‘ldi.

Birinchi imkoniyat – muammoli vaziyatlar bankini boyitish. PBL samaradorligi ko‘p jihatdan muammoli vaziyatning sifatiga bog‘liq bo‘lib, u real hayotga yaqin, kasbiy ahamiyatga ega, bir nechta yechimga ochiq va talaba tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi shart. Generativ sun’iy intellekt o‘qituvchiga berilgan mavzu, murakkablik darajasi va kasbiy kontekstdan kelib chiqib, xilma-xil muammoli vaziyatlar, keys-stadilar va rolli stsenariylarni tezkor yaratish hamda ularni turli talaba guruhlari uchun moslashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘qituvchining loyihalash bo‘yicha mehnat sarfini kamaytiradi va har bir mashg‘ulotni yangi, o‘ziga xos muammo bilan boshlash imkonini yaratadi.

Ikkinchi imkoniyat – individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish. PBL jarayonida talabalar bilim yetishmovchiligini turlicha his qiladi: ba’zilari nazariy jihatdan, ba’zilari hisob-kitoblarda, ba’zilari esa manbalar bilan ishlashda qiynaladi. Moslashuvchan sun’iy intellekt tizimlari har bir talabaning izlanish tarixi va topshiriq natijalarini tahlil qilib, aynan yetishmayotgan bilim bo‘shlig‘ini to‘ldiruvchi qisqa modul, mashq va tushuntirishlarni tavsiya etadi. Natijada mustaqil izlanish bosqichi tartibsiz qidiruvdan maqsadli va boshqariladigan jarayonga aylanadi, guruh a’zolarining umumiy tayyorgarlik darajasi esa bir-biriga yaqinlashadi.

Uchinchi imkoniyat – Sokrat uslubidagi intellektual yo‘naltirish. To‘g‘ri sozlangan sun’iy intellekt vositasi talabaga tayyor javob taqdim etmasdan, balki yo‘naltiruvchi savollar berish, qarama-qarshi dalillarni keltirish va mantiqiy fikrlash zanjirini

rag‘batlantirish tarzida ishlashi mumkin. Bunday “raqamli fasilitator” talabaning auditoriyadan tashqarida ham muammo yuzasidan fikr yuritishini davom ettirishga yordam beradi, o‘qituvchining fasilitatsiya bo‘yicha yukini kamaytiradi va bu bilan PBLning asosiy mohiyatiga – talabaning yechimga o‘z aqliy mehnati orqali erishishiga – zid kelmaydi.

To‘rtinchi imkoniyat – guruhiy ishni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim analitikasi. Sun’iy intellektga asoslangan platformalar guruhiy muhokamalar davomida ishtirokchilarning faollik darajasi, rollar taqsimoti va muhokama mazmunini tahlil qilish imkonini beradi. Shu analitika yordamida o‘qituvchi qaysi guruh qayerda “to‘xtab qolgani” yoki qaysi talaba muhokamadan chetlashib qolayotganini o‘z vaqtida aniqlaydi va nuqtali pedagogik yordam ko‘rsatadi. Bu esa an’anaviy PBLda o‘qituvchi uchun eng murakkab hisoblangan vazifani – bir vaqtning o‘zida bir nechta guruhni sifatli kuzatib borish muammosini – hal etadi.

Beshinchi imkoniyat – baholash jarayonini takomillashtirish. Sun’iy intellekt vositalari yozma hisobotlarni belgilangan mezonlar asosida dastlabki tahlildan o‘tkazish, taqdimotlar bo‘yicha shakllantiruvchi (formativ) fikr-mulohaza berish hamda o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash natijalarini umumlashtirish imkonini yaratadi. Bunda yakuniy baho hamon o‘qituvchi zimmasida qoladi, biroq u ko‘plab rutin tekshiruv ishlaridan ozod bo‘lib, o‘z e’tiborini talabaning fikrlash sifati va yechimni asoslash darajasiga qarata oladi. Talaba esa har bosqichda tezkor teskari aloqa olib, ishini muddatidan avval takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Oltinchi imkoniyat – kasbiy raqamli madaniyatni shakllantirish. PBL doirasida sun’iy intellekt vositalaridan tartibga solingan tarzda foydalanish talabada zamonaviy mutaxassis uchun zarur bo‘lgan yangi ko‘nikmalarni – samarali so‘rov (prompt) tuzish, olingan javobni asl manbalar bilan qiyoslash, sun’iy intellekt xatolarini payqash va undan foydalanishni oshkora rasmiylashtirish malakalarini – tabiiy tarzda shakllantiradi. Shu tariqa sun’iy intellekt nafaqat vosita, balki o‘rganish predmetiga ham aylanadi, bu esa bitiruvchining raqamli mehnat bozoriga tayyorligini oshiradi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ushbu imkoniyatlarning amaliy ahamiyatini tasdiqladi: tajriba mashg‘ulotlarida qatnashgan talabalarning aksariyati sun’iy intellekt bilan boyitilgan PBL mashg‘ulotlarini an’anaviy darslarga nisbatan qiziqarliroq va foydaliroq deb baholadi. O‘qituvchilar esa muammoli vaziyatlarni tayyorlash va guruhlarni kuzatishga sarflanadigan vaqt sezilarli darajada qisqarganini qayd etishdi. Shu bilan birga, natijalar ko‘rsatishicha, aniqlangan imkoniyatlarning to‘liq ro‘yobga chiqishi bir qator pedagogik shartlarga – sun’iy intellektdan foydalanishning bosqichma-bosqich reglamentlashtirilishi, o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi va akademik halollikni ta’minlovchi mexanizmlarning mavjudligiga – bog‘liq ekan.

Oliy ta’lim tizimida PBL texnologiyasi bilan sun’iy intellekt vositalarini birgalikda qo‘llash, xulosa qilib aytganda, bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi ikki omilning uyg‘un birlashuvini ta’minlaydi: PBL sun’iy intellektdan foydalanishga aniq pedagogik maqsad va mazmun bag‘ishlaydi, sun’iy intellekt esa o‘z navbatida PBLning har bir bosqichini – muammoli vaziyatni loyihalashdan tortib baholash va refleksiyagacha – sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Aniqlangan olti yo‘nalishdagi imkoniyatlar (muammoli vaziyatlar bankini boyitish, individual trayektoriya, intellektual yo‘naltirish, guruhiy ish analitikasi, baholashni takomillashtirish, raqamli madaniyatni shakllantirish) yaxlit didaktik model tarzida qo‘llanilganda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmiga aylanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida har bir fan bo‘yicha sun’iy intellekt yordamida muntazam yangilanadigan muammoli vaziyatlar bazasini yaratish; ikkinchidan, PBL bosqichlarida sun’iy intellektdan foydalanishning aniq reglamentini ishlab chiqib, uni ishchi o‘quv dasturlariga kiritish; uchinchidan, o‘qituvchilar uchun PBL fasilitatsiyasi va sun’iy intellekt vositalari bilan ishlash bo‘yicha malaka oshirish modullarini tashkil etish; to‘rtinchidan, baholash tizimida jarayonga yo‘naltirilgan mezonlarni joriy qilish va sun’iy intellektdan foydalanishni oshkora ko‘rsatish talabini kiritish; beshinchidan, talabalarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan kirish modullarini o‘quv jarayoniga joylashtirish lozim.

Ushbu tavsiyalarni izchil amalga oshirish oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining individuallashuvi va faollashuvini ta’minlab, mehnat bozori talablariga javob beradigan, muammolarni mustaqil hal eta oladigan va raqamli vositalar bilan samarali ishlay oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Korkmaz G., Kalayci N. Problem and project-based learning as an educational philosophy: A novel conceptual model for higher education // African Educational Research Journal. Vol. 9(3), pp. 774-789, September 2021. DOI: 10.30918/AERJ.93.21.111

2. Зиятдинова Ю.Н., Сангер Ф.А. Проектное обучение для подготовки инженера XXI века // Высшее образование в России. №3, 2015. С. 92-103.

3. Данилова Т.В., Демидова Т.Е., Тонких А.П. Проектное обучение студентов как основное условие их готовности к профессиональной деятельности // Управление образованием: теория и практика. Том 12, №4. 2022. DOI: 10.25726/s0536-8820-8230-o

4. Condliffe B., Quint J., Visher M.G., Bangser M.R. et al. Project-Based Learning: A Literature Review. Working Paper. MDRC, October 2017.

5. Granado-Alcón M.C., Gómez-Baya D., E.Herrera-Gutiérrez, M.Vélez-Toral, P.Alonso-Martín, M.T.Martínez-Frutos. Project-Based Learning and the Acquisition of Competencies and Knowledge Transfer in Higher Education // Sustainability 2020, 12, 10062. DOI: 10.3390/su122310062

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Muhammad Xurshida Tolibovna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.